

“QORA KITOB” QISSASIDA EPITET(SIFATLASH)NING IFODALANISHI

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qora kitob” qissasida qo'llanilgan epitet(sifatlash)lar haqida atroflicha fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, asarda qo'llanilgan sifatlashlarning asar tarkibidagi o'rni va ularning keng ko'lamliligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Qora kitob” qissasi, epitet(sifatlash), obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik, umumnutq sifatlashlar, badiiy sifatlashlar, obraz, individual sifatlashlar.

Badiiy nutqda qo'llaniladigan barcha so'zlar ma'lum bir darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki badiiy matn tarkibida qo'llanilgan har qanday so'z mantda o'ziga xos ma'no va voqea-hodisani ifodalab keladi, shuningdek ma'no ta'sirchanligini vujudga keltirishda yordam beradi. Tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar mavjud bo'lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy asarda tasviriylikni kuchaytirib keladi. Shunday vositalarga misol qilib sifatlashni keltirishimiz mumkin bo'ladi. Sifatlash tropning bir turi bo'lib, unga badiiy obrazlilikni ta'minlovchi tasviriy vosita hisoblanadi [2,262].

Sifatlashlar emotsional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi[2,262;263]. Badiiy matnda uchraydigan sifatlashlari; b) badiiy sifatlashlar. Umumnutq sifatlashlarida obrazlilik, ekspressivlik kuchli bo'lmaydi, balki narsa va hodisalarning bir tomoni hammaga ma'lum bo'lgan belgi asosida ko'rsatiladi. Shuning uchun bunday sifatlashlar aniqlovchilarga yaqin turadi va ushbu sifatlashlar kishida favqulodda his-tuyg'u, kechinmalarni yuzaga chiqarmaydi. Badiiy sifatlashlarga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu turdagi sifatlashlarga ko'pincha individual, g'ayrioddiy so'zlar qo'llaniladi va shu orqaligina o'zi ifodalayotgan obrazdagi emotsionallik, ifodalilik va ta'sirchanlikning kuchayishiga zamin yaratib beradi. Bunday sifatlashlar orqali ifodalangan narsa-hodisa kishi xayolida obrazli gavdalanadi. Badiiy nasr sifatlashlarga nihoyatda boy bo'lib, unda doimiy sifatlashlar bilan bir qatorda individual sifatlashlar ham ko'plab uchraydi. Umuman, badiiy nasrda sifatlashlar predmet, narsa-hodisaning a) belgi xususiyatini bildirgan so'zlar yordamida hosil bo'ladi; b) sifatlashlar predmetning rangini ifodalovchi so'zlar yordamida hosil bo'ladi. Rang bildiruvchi so'zlarning sifatlash vazifasida kelishi jihatidan *oltin, marmar, kumush* kabi so'zlar alohida ajralib turadi.

Shuningdek, badiiy matnlarda *ko'k, yashil, qizil* ranglarni bildiruvchi so'zlarning sifatlovchi vazifasida kelgan hollari ham ko'plab uchraydi. Shuningdek, badiiy *moviy, feruza, zangori, niliy* so'zlari ko'k va yashil rangni ifodalagan holda sifatlash vazifasida faol qo'llaniladi[3,70]. Shunga ko'ra bu so'zlar yordamida hosil bo'ladigan sifatlashlarni badiiy nutq uchun an'anaviy – badiiy sifatlashlar deya olamiz.

Badiiy nasrda sifatlashning o'xshatishli sifatlash turi ancha faaolbo'lib, bu tipdagi ifodalarda ham predmet belgisi ajratib ko'rsatiladi va shu belgi boshqa bir predmet belgisiga qiyoslanadi. Shubhasizki, bunday ifodalarning badiiy ko'lami ham kengayadi. Zero, sifatlash va o'xshatish baholash funksiyasida uzviy aloqada bo'lib, badiiy obrazlilikda bir-biriga ko'chadi va predmetlarni xarakterlashda bir-biriga yordam beradi[4,19]. Sifatlash haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ldik, endi "Qora kitob" qissasidagi sifatlashlar tahliliga yuzlanamiz:

1. *Bilasizmi, taqsirim, o'sha olis tushimda bir kuni uzoqlarda **qizg'ish tuman** qoplagan oqshom payti sel girdobida cho'kib ketgan bir odamni ko'rib qoldim.* Ushbu keltirilgan jumlada rang bildiruvchi so'zning sifatlash vazifasida kelishi kuzatiladi.

2. ***Qora xayol** qutqusi va ko'ngil zindonda yashar ekanman, qachon bu hibsdan qutilib chiqsam, hammasini biron odamga gapirib beraman.* Ushbu jumlada ham rang bildiruvchi so'z sifatlash vazifasida kelgan.

3. *Men buni anglab qolgan kuniyoq, o'g'limning **sovuq ko'zlarini** his etgan umrim hibsga hukm etilgandi.* Ushbu jumlada ko'zning bizga tanish bo'lmagan belgisi ifodalanmoqda.

4. *Men **ulug' gunohkorman**, Taqsir.*

5. *Men umrimni o'tgan umr emas, **govrilgan umr** deyman.* Ushbu keltirilgan jumlada sifatdosh vositasida ifodalangan sifatlash qatnashgan.

6. *Muzlikdan iborat dunyo. **Muz dunyo!***

7. *Taqsir, keyinchalik **ulug' gunoh** bo'lajak ish qildim: kitobni tokchadan oldimu, hovlidan chiqib ketdim.*

8. *Tuzum quladi-yu, uni hech kim eslmay qo'ydi: taqsirim, shu **yovuz tuzum** bilan tirik edi.*

9. *U o'sha **ulug'vor qiyofada**: "Bu insoniyatning yangi musiqasi bo'ladi", dedi.*

10. *O'g'illaring meni chaqirdi, - dedi **sovuq** va **quruq ohangda**.* Ushbu jumlada ohangning bizga yot bo'lgan belgisi ifodalanmoqda.

11. *Ko'zlarida to'nib qolgan **ulug' g'amni** ko'rib, u ham men kabi adashgan bir banda ekanligiga ishondim.*

12. *Tog'da qalashib yotgan suyaklar va qovjiragan maysalar, minglab sajdaga bosh qo'ygan odamlar boshida ko'zlarini ko'kka nayza qilgan qop-qora kiyimda **ulug'vor** va **g'olib qiyofada** cho'qqi soqol turar, u o'ziga sjda qilayotganlarga **kibr** va **muzaffar nigohini** qalab, go'yo qo'li bilan ko'kni parchalamoqchiday turardi.*

13. Axir o'zim emasmi, bolalarim men erishmagan yutuqlarga erishsin deb, ularni **ulug'** va **balandparvoz orzular** bilan tarbiyalagan?
14. U o'g'limning katta iqtidorini e'tirof etgan holda o'zining yaratgan suratlari yovuz niyat bilan chizilgan, insonni masxara qiluvchi va uni qo'rqitish evaziga **arzon shuhrat** topuvchi suratlar deya baholagandi. Ushbu jumlada sifatlash bizga ma'lum bo'lmagan belgi vositasida ifodalangan.
15. Uning **sovuq ko'zlaridan** biron ifodani bilib bo'lmasdi.
16. Shu **jinoatchi aqlim** bilan daftardan nimani anglagan bo'lsam, o'sha holatda hikoya qilishga urinaman. Ushbu jumlada sifatlashning obrazli ifodasi yaqqol namoyon bo'lgan.
17. Faqat u xudbinligini **ziyolinoma sukut** bilan yashirib yurardi.
18. Biroq mening bu yerga kelganimni hech kim bilmasdi, uyimizda hukm surayotgan **o'lik mavsum**, **sovuq sukunat** hammamizni ixtiyorimizni o'zimizga bergan, o'zboshimcha bo'lib qolgandik.
19. O'g'illarim aynan shu kitobni tarqatib yurishgani **ulug' gunoh**day tuyulib ketdi.
20. Sen ularni menga tarbiyalab berding, men esa ularga **abadiy tiriklik**, **abadiy harakat** ato etdim.
21. Bugun eng **ulug' qurbonlik** yuz berdi, - hayqirdi Iblis, - bu kun abadul-abad unut bo'lmaydi.
22. Taqdir, ana shu behushlik davrida men o'zimning **ro'yo dunyomni** yana ham ko'proq kashf etdim.
23. Ichimda bu ham anavi cho'qqi soqolning bittasi bo'lmasa edi, degan juda **shilimshiq xavotir** paydo bo'ldi. Ushbu jumlada ham sifatlash bizga yot bo'lgan belgi vositasida ifodalangan va shu iboda orqali ma'lum bir darajada obrazlilik yuzaga kelgan.
24. Taqdirim, men sizga bir narsani aytib qo'yay: bu gapni dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lib oxirida nestu zabun bo'lgan kichik bir odamning **katta xulosalari** deb qabul qiling. Ushbu jumlada qo'llanilgan sifatlash asarda o'zgacha obrazlilikni yuzaga keltirgan.
25. O'lim va hayotning mohiyati qolmagan mahshar kunida vayron bo'lgan zaminu zamonning xarobalari ustida, ham bu xarobalikdan xushnudlik, ham yangi, tozargan, forig'langan yangi mavjudot yaratish shavqi bilan to'lgan **ulug'** va **zafarli ovoz** kabi men ham nafs yaralari bo'g'ayotgan tanamni, do'zax to'zoni bilan to'lgan qalblarni larzaga solib hayqiraman.
26. Men **tirik murda**, **ayanchli murda** edim.
27. Ular qorong'uda qulagan devorlari zo'rg'a ko'zga tashlanadigan andak **vahmli xaroba** uy eshigidan kirib ketishganda va peshtaxtasi chirib, qulab tushgan eshikni ko'rganimda nimanidir eslaganday bo'ldim.

28. *Gaplarim erish tuyulayotgandir, biroq men odamzodning anovi **churqun xazon**larday chirib bo'lganini sizga aytib qo'ymoqchiman.*

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamog'imiz joizki, ushbu asar matnida jami 37 o'rinda sifatlashlar ishtiroki kuzatilgan. Tahlilga ko'ra, asarda badiiy sifatlashlar nisbatan ko'roq o'rin egallashi barobarida asarning badiiy qiymatini yanada mustahkamlab kelmoqda. Matnni tahlil qilish jarayonida obrazlilik, emotsionallik, ta'sirchanlik, shuningdek asar tarkibidagi predmet va hodisalarni yaqqol gavdalandiruvchi vositalar nihoyatda ko'plab o'rinlarda qatnashganligiga guvoh bo'lamiz. Biroq ular ichida alohida mavqe egallagan vositalardan biri – sifatlashlar hisoblanib, asarni obrazli namoyon qilishda juda katta samara bera olgan deya olamiz. Har qanday badiiy matn ma'lum bir darajada badiiy asardir. Ularning tarkibini esa badiiy tasvir vositalarisiz tasavvur etish mushkul. Bu vositalarning badiiy matn tarkibida qay holda qo'llanilishi ijodkor mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Sifatlash ham boshqa badiiy vositalar singari ijodkorning so'z qo'llash mahoratini namoyon qiluvchi usullardan hisoblanadi. Binobarin, predmet, narsa-hodisalarning ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan belgilarini ko'rsatish ko'pincha ijodkor mahoratiga bog'liq bo'ladi. Yoki biror predmetga xos bo'lgan qator belgilarning mavjudligini ham ijodkor ko'zi bilan, idroki bilan ko'rish mumkin bo'ladi. Sifatlashlar badiiy nasrning mohiyatini namoyon qiluvchi, shuningdek o'ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar eshonqul. "Qora kitob". – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
2. B. Umurqulov. Badiiy nasr jozibasi: o'quv-ilmiy. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – 300 b.
3. B. Umurqulov. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990. – 110 b.
4. M. Mukarramov. "O'zbek tilida o'xshatish" monografiya.
5. S. Iomxo'jayev. Badiiy o'qish asoslari. – Toshkent, 1973.